



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FARMOYISH

4 aprel 2025 yil. **6-F-son**
Namangan shahri

**Institutda xalqaro ilmiy bazalarida institut ilmiy salohiyatini oshirish
bo‘yicha ishchi guruhini tashkil etish to‘g‘risida**

Institut professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilarining ilmiy faoliyatini xalqaro darajaga olib chiqish, ularning ilmiy-tadqiqot ishlarini nufuzli xalqaro ilmiy bazalarida indekslangan jurnallarda chop etish salmog‘ini oshirish, ilmiy-uslubiy ko‘mak berish va ilmiy nufuzini yuksaltirishga erishish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilsin:

1. Institut professor- o‘qituvchilari va tadqiqotchilarini ilmiy bazalarida nashr faoliyatini rivojlantirishga ko‘mak beruvchi ishchi guruh ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh a‘zolari biriktirilgan kaferdalarda xalqaro ilmiy bazalarida ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha ma’sul etib belgilansin.

3. Xalqaro ilmiy bazalarida ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha ishchi guruh a‘zolariga:

O‘qituvchilar va tadqiqotchilarni maqola yozish, jurnal tanlash va taqdim etish jarayonida metodik va amaliy jihatdan yordam berish va Ilmiy bazalarni tahlil qilish;

Xalqaro ilmiy bazalarida indekslangan jurnallar ro‘yxatini shakllantirish va sohalar bo‘yicha tahlil qilish;

Yozilgan maqolalarning ilmiy darajasi va nashr talablari bilan mosligini tahlil qilish;

Ilmiy maqola yozish, plagiatdan holi bo‘lish, jurnal tanlash, bibliografiyani tuzish bo‘yicha muntazam o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish;

Institut reytingini oshirish uchun xalqaro e’tirofga ega maqolalar sonini ko‘paytirish strategiyasini ishlab chiqish;

kafedrlarning ilmiy yo‘nalishlariga mos bo‘lgan Scopus va Web of Science ro‘yxatiga kiruvchi jurnallar haqida yangilangan ma’lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam ravishda professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilarga taqdim etish;

Taniqli ilmiy muharrirlar, jurnal ekspertlari va xorijiy ilmiy markazlar bilan aloqalarni rivojlantirish vazifalari yuklansin.

4. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i (J.Yuldashev)ga:

Ishchi guruh faoliyatini tashkil etishda tashkiliy-texnik ko'mak ko'rsatish;
Institutdagi ilmiy ishlarning monitoringini olib borish va xalqaro ilmiy bazalarida chop etilgan maqolalar reyestrini yuritish;

Xalqaro indeksatsiyalangan jurnallarga maqola yuboruvchi professor-o'qituvchilarga maslahat va metodik yordam ko'rsatishni muvofiqlashtirish;

Har chorakda ishchi guruh faoliyati yuzasidan hisobot tayyorlash va institut rahbariyatiga taqdim etish vazifalar yuklansin.

5. Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i (A. Tursunpo'latov)ga:

Xalqaro ilmiy jurnallar, nashriyotlar va ilmiy bazalar bilan aloqa o'rnatishda ishchi guruhga ko'maklashish;

Xorijdagi hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma maqolalar tayyorlash, ilmiy loyihalar tayyorlash hamda ishtirok etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Institut tadqiqotchilarining xalqaro konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirokini muvofiqlashtirish vazifalari yuklansin.

6. Farmoyishda belgilangan vazifalar ijrosining nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **M.Qodirxonov** zimmasiga yuklansin.

REKTOR



B.E.XUSANOV

Institut rektorining 4 aprel 2025 yil. 6-F-sonli farmoyishiga ilova

Xalqaro ilmiy bazalarida ilmiy nashrlarini rivojlantirishga ko‘mak beruvchi ishchi guruh a‘zolari ro‘yxati

No	F.I.SH	Lavozimi	Vazifasi	Fan tarmog‘i
1.	Qodirxonov Murodxon Rashidxonovich	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor	Ishchi guruh raisi	Tabiiy fanlar
2.	Yuldashev Javohir Abdurahim o‘g‘li	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i	Ishchi guruh raisi o‘rinbosari	Gumanitar va pedagogika
3.	Suyarov Nodirbek Taxirovich	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i	A‘zo	San‘atsunoslik va pedagogika
4.	Ismailov Temur Islamovich	Kreativ Pedagogika va psixologiya kafedrası professori	A‘zo	Gumanitar va pedagogika
5.	Yusupov Dilmurod Abdurashidovich	Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti	A‘zo	Aniq fanlar
6.	Umarxonova Nigora Umarjanovna	Yevropa tillari kafedrası	A‘zo	Filologiya fanlari
7.	Qo‘ldasheva Mahmuda	Boshlang‘ich talimda innovatsiyalar kafedrası	A‘zo	Pedagogika fanlari
8.	Qoriyev Mirzohid Rustamovich	Tabiiy fanlar kafedrası dotsenti	A‘zo	Tabiiy fanlar
9.	Badriddinova Madina Bahromovna	Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti	A‘zo	Pedagogika va psixologiya
10.	Abdullayev Akmal Nasriddinovich	Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası dotsenti	A‘zo	Gumanitar fanlar
11.	Abdulvohidov Elyor Abdulhamidovich	Filologiya fanlari kafedrası dotsenti	A‘zo	Filologiya va pedagogika fanlari
12.	Tojiboyev Azizbek Botirovich	ART pedagogika kafedrası dotsenti	A‘zo	San‘atsunoslik va pedagogika

13.	Juraxonov Hamidullo Xojimorzayevich	Jismoniy tarbiya va sport kafedasi dotsenti	A'zo	Pedagogika fanlari
14	Tursunpulatov Alisher Muxammad o'g'li	Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i	A'zo	Pedagogika fanlari